

№ 1-06
05.08.2025-yil

“TASDIQLAYMAN”
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori, v.v.b F.Aqchayev



2025-yil 05-avgust

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni Jizzax davlat pedagogika universitetining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga Suhbat asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha

BAHOLASH MEZONI

Suhbat o'tkazish bo'yicha ushbu baholash mezoni 60110200 – “Maktabgacha ta'lim”, 60111200 – “Jismoniy madaniyat”, 61010200 – “Sport faoliyati (Futbol)”, 60910200 — “Davolash ishi”, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil II- yanvardagi 17-son qarori bilan tasdiqlangan “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida”gi Nizomining 15 -bandiga muvofiq tuzilgan bo'lib, texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni (keyingi o'rinlarda - bitiruvchilar) turdosh bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining 2-kursiga Suhbat asosida o'qishga qabul qilishni tashkil etish uchun mo'ljallangan.

Suhbatning maqsadi va vazifalari

Suhbat jarayonlari texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga 2-kursdan o'qishni davom ettirishlari uchun ularning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha bilim va kasbiy ko'nikmalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan to'rtta savol beriladi:

1. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish - **20,0 ball**
2. Mutaxassislik yo'nalishini tanlashda motivatsiyalarni anglash (mutaxassis xodimga qo'yilgan talablar, kasbning mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini anglash, kasbga bo'lgan fidoyilik va boshqalar) - **20,0 ball**
3. Mutaxassislikdan kelib chiqqan holda xodimning shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini tushunish (o'qishga bo'lgan qobiliyati, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyati, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlarining mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari va boshqalar) - **20,0 ball**
4. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bilim va kasbiy ko'nikmalariga ega ekanligini aniqlash - **40,0 ball**

Baholash kategoriyasi	Baholash mezonlari	Ball
1. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi bo'yicha - 20,0 ball		
A'lo	Bitiruvchi berilgan savolga aniq javob beradi, xulosa va qaror qabul qiladi, mustaqil mushohada yuritadi, savolni mohiyatini tushunadi, ifodalay oladi, aytib beradi va tasavvurga ega.	17.3-20
Yaxshi	Bitiruvchi mustaqil mushohada yuritadi, savolni mohiyatini tushunadi, ifodalay oladi, aytib beradi va tasavvurga ega.	15.3-17,2
Qoniqarli	Bitiruvchi mustaqil mushohada yuritadi, savolni mohiyatini tushunadi, lekin to'liq javob bera olmaydi.	13.5-15,2
Qoniqarsiz	Bitiruvchi savol bo'yicha tasavvurga ega emas.	13.4 ball va undan past
2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiyasi bo'yicha (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) 20,0 ball		
A'lo	Bitiruvchi berilgan savolga aniq javob beradi xulosa va qaror qabul qiladi, mustaqil mushohada yuritadi, savolni mohiyatini tushunadi, ifodalay oladi, aytib beradi va tasavvurga ega.	17.3-20
Yaxshi	Bitiruvchi mustaqil mushohada yuritadi, savolni mohiyatini tushunadi, ifodalay oladi, aytib beradi va tasavvurga ega.	15.3-17,2
Qoniqarli	Bitiruvchi mustaqil mushohada yuritadi, savolni mohiyatini tushunadi, lekin to'liq javob bera olmaydi.	13.5-15,2
Qoniqarsiz	Bitiruvchi savol bo'yicha tasavvurga ega emas.	13,4 ball va undan past

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlari bo'yicha (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) - 20,0 ball

A'lo	Bitiruvchi berilgan savolga aniq javob beradi, xulosa va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi yuqori, shaxsiy yutuqlari mavjud, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari mavjud.	17.3-20
Yaxshi	Bitiruvchi berilgan savolga javob beradi, xulosa va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi o'rta darajada, shaxsiy yutuqlari mavjud, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari mavjud.	15.3-17,2
Qoniqarli	Bitiruvchi berilgan savolga to'liq javob bermaydi, xulosa va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi o'rtacha, lekin savol bo'yicha tasavvurga ega.	13.5-15,2
Qoniqarsiz	Bitiruvchi savol bo'yicha tasavvurga ega emas.	13,4 ball va undan past
4. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha — 40,0 ball		
A'lo	Bitiruvchi berilgan savolga to'liq javob beradi, turli manbalardan olingan qo'shimcha ma'lumotlarga boy va javobini mantiqan asoslaydi, mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi mustaqil mushohada yuritadi, savolning mohiyatini tushunadi, ifodalay oladi, aytib beradi.	34.4-40
Yaxshi	Bitiruvchi berilgan savolga javob beradi, mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, savolning mohiyatini tushunadi, ifodalay oladi, aytib beradi.	30.4-34,3
Qoniqarli	Bitiruvchi mustaqil mushohada yuritadi, savolni mohiyatini tushunadi, lekin to'liq javob bera olmaydi, lekin savol bo'yicha tasavvurga ega.	26.8-30,3
Qoniqarsiz	Bitiruvchi savol bo'yicha tasavvurga ega emas.	26,7 ball va undan

Suhbat jarayonida bitiruvchilar jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball **100 ballni tashkil etadi**, 4 ta bo'lim bo'yicha berilgan savollar yig'indisining o'rtachasi **67 ball va undan yuqori** bo'lganda bitiruvchi suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Baholash kategoriyasi	Baholash mezonlari	Umumiy ball
A'lo	Texnikum bitiruvchisi berilgan to'rtta savolning har birini mohiyatini tushunishi, bilishi, tasavvurga ega bo'lishi lozim. Ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritib, shu savollarda berilgan ma'lumotlarni taqqoslay olishi, xulosa va qarorlar chiqargan holda, amalda qo'llay bilishi kerak. To'rtta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, suhbatga maksimal 100 ball qo'yiladi. Bitiruvchining fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatgichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi (har bir savol uchun): -xulosa va qaror qabul qilish; -mustaqil mushohada yuritib olish; -olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; -mohiyatini tushunish; -bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	86,0-100
Yaxshi	Texnikum bitiruvchisi berilgan to'rtta savol to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lishi lozim. Savolni mohiyatini tushungan holda mustaqil mushohada yuritib, savol mazmunini yoritib berishi kerak. Bitiruvchining fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatgichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi (har bir savol uchun): - mustaqil mushohada yuritib olish; -olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; -mohiyatini tushunish; -bilish, aytib berish; -tasavvurga ega bo'lish.	76,0- 85,9
Qoniqarli	Texnikum bitiruvchisi to'rtta savolni mohiyatini tushunishi, tasavvurga ega bo'lishi, qisman bilishi hisobga olinadi. Ma'lumotlar qisman yoritilgan, mustaqil fikr va xulosalar yuritib olmaydi. Bitiruvchining fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatgichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi (har bir savol uchun): - mohiyatini tushunish; - bilish, aytib berish; - tasavvurga ega bo'lish.	67,0-75,9

Qoniqarsiz	Texnikum bitiruvchisi to'rtta savolning mohiyatini qisman tushunadi, lekin javob bera olmaydi	66,9 - va undan past
-------------------	---	----------------------

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida bitiruvchilarga o'qib eshittiriladi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



B.Rasulov